Xizmatlar sohasida tuman bo‘yicha jami xizmat ko‘rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Taxtako‘pir (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (79,9 %), Qorao‘zak (79,4 %), Xo‘jayli (78,3 %), Qonliko‘l (76,3 %), Nukus (75,6 %), Ellikqal‘a (75,6 %), To‘rtko‘l (74,4 %), Amudaryo (74,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.


### 2022 yilning I chorak uchun iqtisodiy vaziyatni baholash, foiz hisobida



Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga asosan 2022 yil I chorak yakunlariga ko‘ra iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangidan tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Kuzatuv ma’lumotlari tahlili, bo‘yicha respondentlarning 37,4 foizi iqtisodiy vaziyatini qulay, 46,2 foizi qoniqarli va 16,4 foizi qoniqarsiz deb baholashi kuzatildi.

**Iqtisodiy vaziyatdagi o‘zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholanayotganligini hulusa qilish mumkin.

### X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIVAVIY NATIHALARI

**Foyda.** Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra 2022 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 771,0 mlrd. so‘m miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi. 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 286,7 mlrd. so‘mga ko‘paygan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 72,9 foizni tashkil qildi.

#### 2022 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (+-), mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yilning yanvar-fevralga nisbatan % da</i>
<b>Jami</b>	<b>771,0</b>	<b>72,9</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	0,1	90,0
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	781,3	79,4
Ishlab chiqaradigan sanoat	9,5	113,4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3,5	5,2
Suv bilan ta‘minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	-0,3	-
Qurilish	2,8	4,3 m.
Savdo	0,7	113,6
Tashish va saqlash	-27,0	-
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	0,1	71,9
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	0,3	59,3
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar	0,1	150,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-1,0	-

2022 yilning yanvar-fevral oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘sishi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (4,8 mlrd. so‘mga), “O‘z kimyosanoat” AJ (1,6 mlrd. so‘m), “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati (18,1 mlrd. so‘m), “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari” AJ (1,2 mlrd. so‘m)ga to‘g‘ri keladi. Foydaning pasayishi “O‘z paxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati AJ (0,1 mlrd. so‘m) hisobiga to‘g‘ri keldi.

2022 yilning yanvar-fevral oylari yakunlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining foydasi 819,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,1% tashkil etadi.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Nukus shahriga 784,4 mlrd. so‘m (jami foydaning 95,7 %), Taxiatoshga 4,9 mlrd. so‘m (0,6 %), Qo‘ng‘irotda 22,6 mlrd. so‘m (2,8 %), Nukus tumaniga 1,2 mlrd. so‘m (0,1 %) va Ellikqal‘aga 1,8 mlrd. so‘mdan 0,2 %) to‘g‘ri keladi.


Shuningdek, Shumanay tumanida yirik tijorat korxonalari mavjud emasligi sababli, ushbu tuman bo‘yicha foyda (zarar) miqdori keltirilmagan.

**2022 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (+-), mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yilning yanvar-fevralga nisbatan % da</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>771,0</b>	<b>72,9</b>
Nukus sh.	736,2	75,1
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	0,7	2,7 m.
Beruniy	0,9	99,2
Qorao‘zak	1,1	93,8
Kegeyli	0,3	68,1
Qo‘ng‘irotda	22,6	7,2 m.
Qonliko‘l	0,2	-
Mo‘ynoq		
Nukus	1,2	106,8
Taxiatosh	4,8	7,0
Taxtako‘pir	-0,1	-
To‘rtko‘l	0,9	143,8
Xo‘jayli	0,1	20,3
Chimboy	0,3	40,3
Ellikqal‘a	1,8	105,5

**Zararlar.** 2022 yilning yanvar-fevral oylarida 8 ta korxonalar va tashkilotlar tomonidan 48576,3 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘yilgan. Zararning asosiy qismi “O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat vazirligi” 146,9 mln. so‘m, “Uzbekistan Airports” AJ 45123,5 mln. so‘m, “Dori-darmon” AK 421,4 mln. so‘m, “Hududgazta’minot” AJ 2246,2 mln. so‘m hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## 2022 yilning yanvar-fevralida zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari (jami nisbatan % da)




2022 yil yanvar-fevral oylarida 8 ta korxonalar o‘z faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo‘lib, ko‘rilgan zararining umumiy miqdori 48 576,3 mln. so‘mni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p zarar miqdori. Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish 310,1 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 0,6 foiz), Elektr gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 2 526,1 mln. so‘m (korxonalar soni 3 ta, 5,2 foiz), Ulgurji va chakana savdo 465,8 mln. so‘m (korxonalar soni 2 ta, 1,0 foiz), Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati 45 123,5 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 92,9 foiz), Professional, ilmiy va texnik faoliyat 150,8 mln. so‘m (zarar ko‘rgan korxonalar soni 1 ta, Respublika bo‘yicha jami zarar miqdorining 0,3 foizi) hissalariga to‘g‘ri keldi.

**2022 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	Korxonalar soni	Zarar so‘mmasi	
		mln. so‘m	jamiga nisbatan % da
<b>Jami</b>	<b>8</b>	<b>48576,3</b>	<b>100,0</b>
Savdo	2	465,8	1,0
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	1	310,1	0,6
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3	2526,1	5,2
Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati	1	45123,5	92,9
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1	150,8	0,3

**2022 yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**  
(jamiga nisbatan % da)



## 2022 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida zarar kurgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko‘rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>8</b>	<b>100,0</b>	<b>48576,3</b>
Nukus sh.	6	99,1	48133,2
Taxiatosh	1	0,1	133,0
Xo‘jayli	1	0,3	310,1

### Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorlik holati<sup>1</sup>

2022 yilning 1 mart holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 2177,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 10,0 mlrd. so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,5 foizini tashkil etgan. Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2021 yilning 1 martiga nisbatan 79,1 % ni tashkil etib, 2,6 mlrd. so‘mga kamaygan.

### 2022 yil 1 mart holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)

<i>Debitor qarzdorlik jami</i>	<i>%</i>
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ;	40,1
“O‘z paxtasanoat” AJ	1,8
“O‘z donmahsulot” AJ	2,8
“O‘z kimyosanoat” AJ	0,6
”Hudud gaz ta’minot” AJ	9,6
”Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	2,1
“O‘zbekneftgaz” AJ	0,2
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	0,7
O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi	0,03
MCHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo‘shma korxonasi	22,5
“Ustyurt qidiruv-burgulash boshqarmasi” MCHJ	2,0
“Zarubejneftgaz-GPD Tsentralnaya Azıya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi	0,7
“Lanextrakt” MCHJ	0,9
Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik sub’ektlari	16,0

<sup>1)</sup> Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

2022 yil 1 mart holatiga jami debitor qarzdorliklar hajmi 2177,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi, debitor qarzdorliklarning asosiy qismini “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ 873,2 mlrd. so‘m (40,1 foiz), “O‘zpaxtasanoat” AJ 38,8 mlrd. so‘m (1,8 foiz), “O‘zdonmahsulot” AJ 61,5 mlrd. so‘m (2,8 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 45,7 mlrd. so‘m (2,1 foiz), “O‘zkimyosanoat” AJ 13,8 mlrd. so‘m (0,6 foiz), O‘zbekneftegaz” AJ 5,0 mlrd. so‘m (0,2 foiz), “O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ 14,8 mlrd. so‘m (0,7 foiz) “Hududgazta‘minot” AJ 208,1 mlrd. so‘m (9,6 foiz) , MCHJ "UZ-KOR GAS CHEMICAL" qo‘shma korxonasi 490,1 mlrd. so‘m (22,5 foiz) “USTYURT QIDIRUV- BURGULASH BOSHQARMASI” MCHJ 42,7 mlrd. so‘m (2,0 foiz) “ZARUBEJNEFTEGAZ-GPD TSENTRALNAYA AZIYA” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi 14,3 mlrd. so‘m (0,7 foiz) "LANEXTRAKT" MCHJ shaklidagi qo‘shma korxonasi 20,6 mlrd. so‘m (0,9 foiz) O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi 0,8 mlrd. so‘m (0,03 foiz) hamda boshqalar 348,4 mlrd. so‘m (16,0 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.

**2022 yil 1 mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

	Jami, mlrd. so‘m	shundan:			Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da
		xaridor va buyurtma- chilar	yetkazib beruvchilarga va pudratchi- larga berilgan avanslar	ichki idora- viy	
<b>Jami</b>	<b>10,0</b>	<b>0,6</b>	<b>0,4</b>	<b>1,1</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	9,1	-	0,1	1,1	91,0
Tashish va saqlash	0,9	0,6	0,3	-	9,0

**2022 yil 1 mart holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	Jami, mlrd. so‘m	shundan:			Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da
		yetkazib beruvchilar va pudratchi- larga	mehnatga haq to‘lovlar bo‘yicha qarz	Byudjetga davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz	
<b>Jami</b>	<b>6,8</b>	<b>2,1</b>	<b>4,1</b>	<b>0,6</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	0,1	0,1	-	-	1,5
Tashish va saqlash	0,1	0,1	-	-	1,5
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	6,6	1,9	4,1	0,6	97,0


## 2022 yilning 1 mart holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)

<i>Kreditor qarzdorlik, jami</i>	<i>%</i>
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ;	2,1
“O‘zpaxtasanoat” AJ;	0,8
“O‘zdonmahsulot” AJ	1,1
“O‘zkimyosanoat” AJ;	0,9
“Hududgazta‘minot” AJ	14,8
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	4,3
“O‘zbekneftegaz” AJ	0,3
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	1,6
“Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Azıya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi	58,4
“Ustyurt qıdıruv-burgulash boshqarması” MCHJ	1,1
“Lanextrakt” MCHJ	0,7
MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo‘shma korxonasi	2,4
Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik sub‘ektlari	11,5

2022 yilning 1 mart holatiga jami kreditor qarzdorliklar hajmi -3468,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi, kreditor qarzdorliklarning asosiy qismi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ -71,6 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 2,1 %), “O‘zpaxtasanoat” AJ -26,2 mlrd. so‘m (0,8 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ -149,3 mlrd. so‘m (4,3 %), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ -54,4 mlrd. so‘m (1,6 %), “O‘zdonmahsulot” AJ -39,9 mlrd. so‘m (1,1 %), “O‘zkimyosanoat” AJ -30,7 mlrd. so‘m (0,9%), “O‘zbekneftegaz” AJ -11,0 mlrd. so‘m (0,3 %), “Hududgazta‘minot” AJ -513,0 mlrd. so‘m (14,8 %) “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Azıya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi -2024,3 mlrd. so‘m (58,4 %) MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo‘shma korxonasi -83,8 mlrd. so‘m (2,4 %), “Ustyurt qıdıruv-burgulash boshqarması” MCHJ -39,0 mlrd. so‘m (1,1 %), “Lanextrakt” MCHJ -23,3 mlrd. so‘m (0,7 %) hamda boshqalar -401,5 mlrd. so‘m (11,5 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.


**XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2022 yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2022 yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




## Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha  
2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2022- yil yanvar- mart oylarida)






**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(yanvar-mart oylarida, birlikda)




## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,5** foizga oshdi



- Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi





### Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **8,7** foizga oshdi




2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 219 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,7 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 9,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,5 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 30,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) o‘shishi kuzatildi va tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 97,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,6 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 83,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) tashkil etdi.

## Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida




2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 440 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o‘tgan yilga nisbatan 1,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,5 %), fuqarolik obyektlarini qurish 39,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 12,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 96,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 28,1 %) tashkil etdi.

**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**


(2022 yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**



**Mikrofirkmalar**



**Kichik korxonalar**




**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida**

(2022 yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

2022-yil 1- aprel holatiga ko‘ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 495 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan 7,5 % ga (jami savdodagi ulushi 68,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan 21,6 % ga (jami savdodagi ulushi 21,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o‘tgan yilga nisbatan - 17,4 % ga (jami savdodagi ulushi 8,3 %) o‘shidir.




- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

## Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




## Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

### Mikrofimlar

### Kichik korxonalar




## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

### Mikrofirmalar

### Kichik korxonalar




## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 377 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar 4,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 %), yashash bo‘yicha xizmatlarning 8,7% ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 %) o‘shidir.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Oilaviy korxonalar soni**  
(2022 yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 2 136 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 306 ga yoki 16,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 973 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 288 ga yoki 17,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 101 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64,7 % ga tashkil etdi.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(2022 yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 15 939 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 648 ga yoki 11,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 077 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 522 taga yoki 11,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 797 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78,1 % ni tashkil etgan.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 181 tani tashkil etib, ulardan 180 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 12 ta yoki 7,1 % oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni**

(2022 yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




### Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni (2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo‘shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>180</b>	<b>107</b>	<b>73</b>
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	5	1	4
Beruniy	10	5	5
Bo‘zatov	7	7	
Qorao‘zak	11	7	4
Kegeyli	6	5	1
Qo‘ng‘irot	9	7	2
Qonliko‘l	7	3	4
Mo‘ynoq	37	24	13
Nukus	9	5	4
Taxiatosh	9	3	6
Taxtako‘pir	4	2	2
To‘rtko‘l	6	5	1
Xo‘jayli	3	1	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	4	2	2
Ellikqal‘a	5	4	1
Nukus sh.	44	23	21

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 43 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,9 %), Mo‘ynoq 37 ta (20,6 %), Qorao‘zak 11 ta (6,1%), Beruniy 10 ta (5,6%), Nukus, Qo‘ng‘irot va Taxiatoosh tumanlarida 9 ta (5,0 %), Qonliko‘l 7 ta (3,9%), Bo‘zatov, Kegeyli va To‘rtko‘l tumanlarida 6 ta (3,3 %) tashkil etadi.

**Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni**

(2022- yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,1 %), To‘rtko‘l (9,9 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal‘a (6,2 %), Qo‘ng‘irot (5,8 %), Xo‘jayli (5,2 %), Nukus (4,3 %), Chimboy (4,1 %), Taxiatosh va Kegeyli (3,2 %), Mo‘ynoqda (2,8 %), Qorao‘zak va Qonliko‘l (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,5 %), Taxtakopir (1,8 %) va Bo‘zatov (1,5 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni**


(2022 yil yanvar- mart oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (22,7 %), To‘rtko‘l (9,9 %), Beruniyda (9,3 %), Taxiatosh (5,1 %), Xo‘jayli (3,4%), Ellikqal‘a (7,9%), Qo‘ng‘irot (6,7%), Amudaryo (8,7 %), Nukus (4,4 %), Chimboy (3,9 %), Mo‘ynoqda (3,3 %), Kegeyli (4,5 %), Shumanay (2,8%) Qorao‘zak (2,1 %), Qonliko‘l (2,0 %), Bo‘zatov (1,3%), Taxtakopir (2,0 %) tumanlari ulushiga tegishli.




## Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda)



## Faoliyat ko‘rsatayotgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,2 %), To‘rtko‘l (10,2 %), Beruniy (7,1 %), Amudaryo tumani (6,9 %), Xo‘jaylida (5,4 %), Qo‘ng‘irot (5,3 %), Nukus (5,0 %), Ellikqal‘a (4,4 %), Chimboy (4,3 %), Kegeylida (3,4 %), Mo‘ynoq (3,0 %), Qorao‘zak (2,9 %), Taxiatosh tumani (2,5 %), Bo‘zatov (1,8 %), Shumanay va Qonliko‘l tumanlarida (1,7 %), Taxtako‘pir (1,2%) tumanlari hissasiga tegishli.

## **Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2022 yilning yanvar-mart oylari holatiga)

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2022 yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2925,0 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.


2022 yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nukus shahrida 3857,0 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 131,9 foiz), Qo‘ng‘irot tumanida 3252,8 ming so‘m (111,2 foiz) va Taxiatosh tumanida 2991,8 ming so‘m (102,3 foiz) ni tashkil etgan.

### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad (2022 yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Respublika bo‘yicha jami</b>	<b>158 390</b>	<b>1 389,9</b>	<b>2 925,0</b>
shu jumladan:			
Sanoat	14 581	185,0	4 230,1
Qurilish	2 140	16,6	2 584,6
Savdo	1 142	8,1	2 352,0
Tashish va saqlash	7 417	86,6	3 891,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	113	0,95	2 805,8
Axborot va aloqa	1 151	11,6	3 357,0
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 888	58,9	6 800,3
Ta‘lim	76 789	566,1	2 413,9
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	26 285	201,8	2 558,9
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 626	17,7	2 241,9
Boshqa faoliyat turlari	23 258	221,2	3 170,4

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(2022 yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Respublika bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2925,0 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga o‘sgan.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilikda 6800,3 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,3 barobarga yuqori), Sanoat sohasida 4230,1 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 44,6 % ga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 3891,2 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 33,0 % ga yuqori) hamda Axborot va aloqada 3357,0 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 14,8 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2021 yil	2022 yil	O‘sish sur‘ati, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>2635,0</b>	<b>2925,0</b>	<b>111,0</b>
Nukus sh.	3360,8	3857,0	114,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	2005,9	2198,2	109,6
Beruniy	2001,6	2284,8	114,1
Bo‘zatov	1769,3	2065,7	116,7
Qonliko‘l	2029,6	2398,5	118,2
Qorao‘zak	1929,3	2131,7	110,5
Kegeyli	2274,3	2589,7	113,9
Qo‘ng‘irot	3202,6	3252,8	101,6
Mo‘ynoq	1947,3	2187,5	112,3
Nukus	2274,6	2764,0	121,5
Taxiatosh	2664,7	2991,8	112,3
Taxtako‘pir	2138,1	2128,7	99,6
To‘rtko‘l	2187,2	2379,8	108,8
Xo‘jayli	2404,0	2592,1	107,8
Chimboy	2078,4	2482,2	119,4
Shumanay	2121,3	2264,5	106,8
Ellikqal‘a	2254,9	2425,7	107,6


**Ish haqi.** 2022 yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quydagilarni ko'rsatmoqda.

**Ta'lim sohasida** 1430 ta mussasada 76789 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 48,5%) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 566,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 40,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2413,9 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga o'sgan.

**Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha**  
**o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



**Hududlar**






**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turida **44** ta korxonada **14581** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,2 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **185,0** mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 13,3 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4230,1** ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga o‘sgan.

### Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida 7608,1 ming so‘mni (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 79,9 % yuqori) va Taxiatioş tumanida 5385,8 ming so‘mni (127,3 %) va Nukus tumanida 4319,5 ming so‘mni (102,1) tashkil etgan bo‘lsa, Chimboy tumanida 1435,6 ming so‘mni (33,9 %), Bo‘zatov tumanida 1550,0 ming so‘mni (36,6 %), Ellikqal‘a tumanida 1567,0 ming so‘mni (37,0 %) hamda To‘rtko‘l tumanida 1647,6 ming so‘mni (38,9 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish** sohasida 93 ta muassasada 26285 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,6 % ni) xodim ishlagan bo‘lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 201,8 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,5 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2558,9 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga o‘sgan.

**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘mda)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘istonda ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Chimboy tumanida 3031,2 ming so‘mni (respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 118,5 %), Beruniy tumanida 2753,9 ming so‘mni (107,6 %), Qonliko‘l tumanida 2666,6 ming so‘mni (104,2 %) va Kegeyli tumanida 2666,4 ming so‘mni (104,2 %) tashkil etgan bo‘lsa, Bo‘zatov tumanida 2021,8 ming so‘mni (79,0 %), Shumanay tumanida 2269,7 ming so‘mni (88,7 %) va Taxtako‘pir tumanida 2393,4 ming so‘mni (89,6 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.






**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati** iqtisodiy faoliyat turida 79 ta muassasada 2888 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 58,9 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,2 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6800,3 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 28,8 % ga o‘sgan.

**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022 yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha Qoraqalpog‘istonda ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida 7758,2 ming so‘mni (respublikadaga o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 114,1 %), Amudaryo tumanida 7654,0 ming so‘mni (112,6 %) va Xo‘jayli tumanida 7334,1 ming so‘mni (107,8 %) tashkil etgan bo‘lsa, Qorao‘zak tumanida 3575,1 ming so‘mni (52,6 %), Shumanay tumanida 5005,8 ming so‘mni (73,6 %) va Taxtako‘pir tumanida 5238,8 ming so‘mni (77,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati**  
(2022 yilning yanvar-mart oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



## XIII. DEMOGRAFIYA

### Doimiy aholi soni


Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-aprel holatiga 1955,7 ming kishini tashkil etib, 2022-yil boshidan 7,2 ming kishiga ya'ni 0,4 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 958,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 997,5 ming kishini (51,0 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2022 yil yanvar-mart oylarida

- Aholi soni **7,2 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **9,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **2,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **4,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **0,6 ming nafarni** tashkil etdi.

### 2022-yilning Yanvar-mart oylarida

Yil boshida  
doimiy aholi soni  
**1 948 488 kishi**  
(2022 yil 1 yanvar  
holatiga)



Doimiy aholi soni  
**1 955 694 kishi**  
(2022-yilning 1-aprel  
holatiga)

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni<sup>1)</sup>**  
(2022-yilning 1- aprel holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>1955,7</b>	<b>958,2</b>	<b>997,5</b>
Nukus sh.	330,7	330,7	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	205,6	53,3	152,3
Beruniy	198,2	70,1	128,1
Bo‘zatov	21,9	5,5	16,4
Qonliko‘l	52,6	13,2	39,4
Qorao‘zak	53,7	16,3	37,4
Kegeyli	73,8	29,8	44,0
Qo‘ng‘irot	133,2	84,2	49,0
Mo‘ynoq	33,1	14,7	18,4
Nukus	52,1	10,6	41,5
Taxiatosh	75,8	54,3	21,5
Taxtako‘pir	40,7	17,1	23,6
To‘rtko‘l	221,7	84,2	137,5
Xo‘jayli	126,0	80,4	45,6
Chimboy	114,2	58,5	55,7
Shumanay	57,2	15,0	42,2
Ellikqal‘a	165,2	20,3	144,9

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni (1 aprel holatiga ming kishi)

	2021 y.	2022 y.	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati % da</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>1927,6</b>	<b>1955,7</b>	<b>101,5</b>
Nukus sh.	325,0	330,7	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	201,9	205,6	101,8
Beruniy	195,0	198,2	101,6
Bo‘zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao‘zak	53,2	53,7	100,9
Kegeyli	73,2	73,8	100,8
Qo‘ng‘irot	131,7	133,2	101,1
Qonliko‘l	51,8	52,6	101,5
Mo‘ynoq	32,5	33,1	101,8
Nukus	51,2	52,1	101,8
Taxiatosh	74,8	75,8	101,3
Taxtako‘pir	40,4	40,7	100,7
To‘rtko‘l	218,3	221,7	101,6
Xo‘jayli	124,4	126,0	101,3
Chimboy	113,3	114,2	100,8
Shumanay	56,6	57,2	101,1
Ellikqal‘a	162,5	165,2	101,7


**Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati**

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2021 y.	2022 y. <sup>1)</sup>	o‘shish, kamayish	2021 y.	2022 y. <sup>1)</sup>
Tug‘ilganlar	7 983	9 680	1 697	16,8	20,1
O‘lganlar	2 078	2 319	241	4,4	4,8
1 yoshgacha bolalar o‘limi	138	153	15	14,3	15,0
Tabiiy o‘shish	5 905	7 361	1 456	12,4	15,3
Nikohlar	4 242	4 155	-87	8,9	8,6
Ajralishlar	317	554	237	0,7	1,2

**Tug‘ilish darajasi.** 2022 yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 9680 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (7983 kishi) nisbatan 1697 kishiga yoki 21,3 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 20,1 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (16,8 promille) nisbatan 3,3 promillega ko‘paydi.

**Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari**

(yanvar-mart oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Nukus shahrida 15,7 dan 21,7 promillega, Beruniyda 17,1 dan 21,9 promillega Taxiatoshda 15,1 dan 19,6 promillega, va Bo‘zatovda 14,7 dan 19,1 promillega ko‘payishi kuzatilgan.


<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot

**Tug‘ilish.** 2022-yilning yanvar-mart oylarida 9,7 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 20,1 promilleni tashkil etdi hamda 2021 yilning mos davriga nisbatan 3,3 promillega ko‘payganligi (2021 yilning yanvar-mart oylarida 16,8 promille bo‘lgan) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

**Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti**  
(2022 yilning yanvar-mart oylarida)




**O‘lim darajasi.** 2022 yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 2319 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (2078 kishi) nisbatan 241 kishiga yoki 11,6 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,8 promilleni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-mart oylarida 4,4 promille).

**2022 yilning yanvar-mart oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



**O‘lim koeffitsientlari**




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Beruniy tumanida (4,4 dan 5,7 promillega), Kegeylida (4,2 dan 5,4 promillega), To‘rtko‘lda (4,2 dan 5,2 promillega) va Amudaryoda (3,9 dan 4,6 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

**Nikoh.** 2022 yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 4,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,6 promilleni tashkil etdi.




**Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti**  
(2022 yilning yanvar-mart oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2022 yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 0,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,2 promilleni tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti**  
(2022 yilning yanvar-mart oylari holatiga)



**Nikohlar va ajralishlar.** 2022 yilning yanvar-mart oylari FHDYo organlarida 4155 ta nikohlar va 554 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 8,6 ta nikoh (2021 yilning tegishli davrida 8,9 ta) va 1,2 ta ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 0,7 ta) to‘g‘ri kelgan.

**Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni**  
(yanvar-mart oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2021 y.	2022 y. <sup>2)</sup>	2021 y.	2022 y. <sup>2)</sup>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>4242</b>	<b>4155</b>	<b>317</b>	<b>554</b>
Nukus sh.	788	630	56	132
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	468	516	33	52
Beruniy	369	500	24	47
Bo‘zatov	52	45	2	3
Qonliko‘l	124	75	7	11
Qorao‘zak	104	120	6	21
Kegeyli	207	160	15	21
Qo‘ng‘irot	329	295	29	36
Mo‘ynoq	50	59	0	11
Nukus	140	136	11	14
Taxiato‘sh	123	141	7	11
Taxtako‘pir	86	65	6	19
To‘rtko‘l	455	427	38	42
Xo‘jayli	255	269	27	35
Chimboy	238	236	19	35
Shumanay	94	97	12	14
Ellikqal‘a	360	384	25	50

**Migratsiya<sup>1</sup>(Ichki va tashqi).** Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2022 yilning yanvar-mart oylarida Respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 2439 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 2594 kishini tashkil qilgan.

### Aholi migratsiyasi (kishi)

	2021 yilning yanvar-mart oylarida	2022 yilning yanvar- mart oylarida
Ko‘chib kelganlar	4751	2439
Ko‘chib ketganlar	6833	2594
Migratsiya saldos	-2082	-155

2022 yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig‘i minus 155 kishiga (2021 yilning shu davrida –minus 2082 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy (minus 140), Kegeyli (minus 54) va Qo‘raozak (minus 53) tumanlarida kuzatilgan.



<sup>1</sup> shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo‘shgan holda  
<sup>2</sup> dastlabki ma’lumot



## Poytaxtdagi demografik xolat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2022 yil 1-aprel holatiga 330,7 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 1,7 ming kishiga yoki 0,5 % ga o‘sgan.

### Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)

2021 yilning yanvar-mart oylarida	2022 yilning yanvar-mart oylarida
<b>Tug‘ilish</b>	
15,7	21,7

2022 yilning yanvar-mart oylarida 1,8 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 21,7 promilleni tashkil etdi (2021 yilning mos davrida 15,7 promille bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2022 yilning yanvar-mart oylarida 630 ta nikoh va 132 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,7 promilleni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 2,2 promillega kamaygan (2021 yilning mos davrida 9,9 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,6 promilleni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega ko‘paydi. 2021 yilning mos davrida 0,7 promille bo‘lgan.

### Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-mart holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

